



DARYOLARDA SUV TOSHQINLARI

Axmedova Farzonabegim Saydullo qizi

Qo'qon davlat pedagogika instituti talabasi
<https://doi.org/10.5281/zenodo.6590429>

MAQOLA TARIXI

Qabul qilindi: 10-may 2022

Ma'qullandi: 14- may 2022

Chop etildi: 28- may 2022

KALIT SO'ZLAR

Daryo havzasi, suv sathi, to'yinish, tabiiy-geografik xusussiyat, moddalar oqimi, minerallashuv va kimyoviy tarkib, eroziya, oqim normasi, metodologiya, suv harorati.

Bahor va kuz mavsumlarida asosan daryo toshqinlarining ko'plab kuzatilishiga guvoh bo'lish mumkin. Bunga sabab davriy va ijtimoy hodisalardan yuzasidan sodir bo'ladigan hodisalar: sel kelishi, suv omborlarining buzilishi yoki boshqalar. Bahor va kuz oylarida suv toshqinlarining oldini olish, va ularning talafotining oldini olish, zararsizlantirish yuzasidan daryo oqimlarining statistik tadqiqot usullarini asaoslash hamda ilm-fan ahliga taqdim etish ustuvor vazifalardan biri xisoblanadi.

Suv xo'jaligi xodimlari tomonidan daryolarning yillik oqimini hisoblash, ularning toshqin vaqtolarining nazariy taxmin qilish, suv toshqinlari vaqtida yuz beradigan halokatlarga tayyor turish - bularning barchasi daryolarning yillik oqim

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada bahor va kuz oylarida daryolarda sodir bo'ladigan suv toshqinlarining o'ziga xosligi, suv sathining ko'tarilishi, daryo suvining oqish mexanzmi, suv toshganda oqim tezligini o'lchash, sur sarfi va suvning to'yinish hajmini aniqlash yuzasidan fikr yuritgan bo'lib, daryo va o'zanlarning kengayishi, to'yinishi haqida ma'lumotlar berilgan.

o'zgaruvchanligiga bog'liq holda Gidrologik hisoblash usullari bilan bevosita bog'liqdir.

Daryolarning suv sig'imini taxminiy baholash, qolaversa, maksimal suv sarflarini statistik baholash, toshqin va toshqindan keyin minimal oqimlarning paydo bo'lishi o'ziga xos tarzda namoyon bo'lishi bilan ajralib turadi. Bunda oqimning yil ichida taqsimlanishi yuzasidan - daryo suvining mavsumiy, oylar va kunlar davomida suv oqimlarining tabiiy va sun'iy tarzda oshirilishi yoki kamaytirilishi natijasida sodir bo'ladigan o'zgarishlar ham mavjud.

Daryolarda bahor va kuz mavsumlarida sodir bo'ladigan suv toshqinlari va ularning oldini olish, yetkazilishi kutilayotgan zararlar yuzasidan quyidagilar:



- daryolarda suv toshqinlarining nazariy vaqtini inobatga olish;
- namunaviy muntazam oqimning taqsimlanish sig'imi va suv toshqinlari vaqtida ularning amaliy-nazariy ko'lAMDORLIGINI hosil qilish;
- Avvalgi suv toshqinlarining o'xshash daryo ma'lumotlariga asoslanib nazorat jadvaliga qayd etish;
- Suv toshqinlarining oldini olishda amaliy-nazariy metod va tavsiyalardan unumli foydalanish;
- Suv toshqinlari vaqtida qalbaki daryo o'zanlarini hosil qilishning samaradorligi va zararlanish darajasining kamayiyishiga erishish;
- Suv xo'jalik balansi (sxb)ning daryo toshqinlari bn o'zaro aloqadorlik va umumiylit yuzasidan olib boriladigan dasturiy-ijtimoiy ta'minot dasturi bilan tanishish, uning daryoda suv toshqinlarining oldini olishdagi ahamiyatining shakllanishida o'ziga xos manbaa bo'lib xizmat qilishi haqida axborot berishning tashlil etilishi.
- Suv toshqini paytda suv tarkibining xossalari va boshqalar.

Suv toshqinlari va ularning sodir bo'ladigan vaqtida daryo havzasining gidrologik ko'rsatkichlari ham muhim ahamiyat kasb etishi bilan ahamiyatlidir.

„Suv yig'ish havzasi gidrografik xususiyatlari bilan bir-biridan farqlanadi. Bunday xususiyatga quyidagilar kiradi:

1. Havza maydoni kattaligi - F(km). Tekislik daryolari uchun quyidagi maydon kattaliklari qabul qilingan:

- a) agar $F > 5000 \text{ km}^2$ - eng katta daryo havzalari;
- b) agar $F < 2500 \text{ km}^2$ dan 5000 km^2 gacha - o'rtacha;
- c) agar $F < 2500 \text{ km}^2$ bo'lsa - kichik daryo havzalariga bo'linadi” [1.B.K.Soliyev, S.A.Azimboyev Gidrologiya va Gidrometriya. Toshkent „Yangi asr avlod” 2006] Bunda suv toshqinlari va ularning uzbviy tarzda sodir bo'lishi ham yuksak ahamiyat kasb etadi. Umumiyl olganda daryolarda suv toshqinlari va ularning sodir bo'lishi yuzasidan nazariy bilimlarning mavjud ekanligi umumiyl giologiya, iqlimshunoslik va boshqa sohalarning o'zaro mutanosibligini ta'minlashda o'ziga xos bir manbaa bo'lib xizmat qiladi deyish mumkin.

Suv toshqinlari paytda suv tarkibining turli xildagi kimyoviy elementlarga boy ekanligi ahamiyatlidir, negaki, daryolarda suv toshqinlarining yuzaga kelishiga sabab bu albatta sellardir. Sel kelgach, suvlar tepalik va adirliklardan quyiga qarab oqa boshlaydi va shu bilan birga yer po'stining kimyoviy tarkibini ham oqizib ketadi. „Yer po'stining minerallari yer qobig'ida sodir bo'ladigan xilma-xil fizik – kimyoviy jarayonlarning tabiiy birikmalaridan iborat. Tabiatdagi minerallar , asosan qattiq holatda uchraydi, lekin simob, suv van neft kabi suyuq minerallar ham bor. Gazsimon minerallardan esa korbanat angidridi, vodorot sulfati, sulfit kislota va boshqalarning bo'lishi ahamiyatlidr”

- [2. B.T.Toshmugammedov Umumiyl Geologiya „Noshir” Toshkent – 2011]

Daryolarning suv btoshqinlari paytda o'z o'zanlarining yemirilishini oldini olish maqsadida daryolarining to'yinish



manbaalari hissalarini miqdoriy baholash ham katta ahamiyat qaratilishi lozim bo'lgan masalalar sirasiga kiradi. Suv toshqinlari paytda daryo oqimining o'zgaruvchanligi, toshqi vaqtida yuz

beradigan suv eroziyalari va uning tasniflari, toshqin ta'sirini kamaytirishda daryo havzasining suv muvozanati yetakchi omillardan bo'lib xizmat qiladi. Bularni quyidagi jadvalda ko'rish mumkin:

Daryoda oqim normasi	Bahorda - muntazam	Kuzda – Muntazam	+
Daryoning loyqalanishi	Minerallarning oqib kelishi	Daryo Oqiziqlari.	+
Daryoning to'yinishi	Oqmaydigan daryolarda sarf	Daryo suvlarining minerallashuvi	+
Toshqin vaqtida suv sarfi	Suv erroziyasi	Erkin Moddalar oqimi	+
Toshqinning oldini olish usullari	Usullar, metodlar	Daryolarda suvning oqish mexanizmi	+

Daryolarda suv toshqinlari vaqtida daryo suvining oqish tezligini o'lchash va aniqlash usullarining o'ziga xos xususiyatlarining mazmun mohiyati, qolaversa, shakily va amaliy tartibda amaliy foydalanish. „Daryolarda suv toshqinlari bo'layotgan paytda daryo suvining oqish tezligini quyidagi usullar bilan aniqlash mumkin:

- 1.Qalqimalar yordamida;
2. Gidrometrik parraklar(vertushkalar) yordamida;
3. Hisoblash ifodalari yordamida” [3. A.R. Rasulov, F.X. Hikmatov, D.P. AYTboev Gidrologiya asoslari. Toshkent. „Universitet” 2003

Bilamizki daryo toshqinlariga sellarning daryoga kelib quyilishi sabab bo'ladi. Bunda daryolarda sel toshqinlari qolaversa,

ularning hosil bo'lishi va turlari ham muhim ahamiyat kasb etaishi bilan o'ziga xoslikni kasb etadi.

„Sel toshqinlari o'zining qisqa muddatliligi, oqim hajmining nisbatan kattaligi bilan ajralib turadi. Ular qulay gidrometeorologik sharoitlarda ayni bir daryoki soylarda deyarli har yili yoz va bahor oylarida kuzatilishi mumkin.

Sel toshqinlari jarayonlarining quyidagi uch turini farqlash lozim:

- eroziya – tashuvchi sel jarayoni;
- eroziya – siljituvcchi sel jarayoni;
- siljituvcchi sel jarayoni” [4. B.T.Toshmuhammedov „Umumiy Geologiya” „Noshir” Toshkrnt – 2011]

Daryolarda bo'lib turadigan suv toshqinlarining quyidagi, gidrologik va



meterologik omillar bilan chambarchas bog'liq nbo'lishi mumkin ekanligi yuzasidan quyidagicha tavsiflanadi:

- Jala va shunga o'xshash yog'ingarchiliklar sababli;
- Sel toshqinlari vaqtida daryo o'zanidan siljish hodisasi;

- Kichik jilg'a va soylarning qo'shilishi yuzasidan va boshqalar..

Daryolarda bahor va kuz oylarida bo'lib turadigan suv toshqinlari va ularning oldini olish har qachongidan ham ustuvor vazifa xisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. .S.K.Soliyev, S.T. Azimboyev „ Gidrologiya va Gidrometriya” Toshkent „Yangi asr avlodи” 2006
2. 2.B.T. Toshmugammedovc „ Umumi Geologiya” Noshir. nToshkent -2011
3. 3.A.R.Rustamov, F.X. Hikmatov, D.P Aytboev Gidrologiya asoslari. Toshkent. „Universitet”2003
4. 4.B.T.Toshmuhammedov „Umumi geologiya” „Noshir” Toshkent – 2011
5. Hikmatov F.H „Водная эрозия” – Т.: „Fan tehnologiya”, 2011